Ключевые слова: коммерческий банк, ресурсная база, пассивы, депозитная политика, финансовая устойчивость, кредитование, коэффициент покрытия.

KIRISH

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda asosiy rol bankning resurs bazasiga, xususan passivlar tuzilmasiga bog'liqdir. Har qanday tijorat bankining passivlarini boshqarish mexanizmi bank faoliyatining strategik elementlaridan biri bo'lib, u bankning depozit siyosati orqali amalga oshiriladi. Depozit siyosati esa bankning kredit va investitsiya siyosatlarini bilan bevosita bog'liq bo'lib, moliyaviy manbalarni samarali jalb qilish va ularni oqilona yo'naltirish imkonini ta'minlaydi.

Passiv operatsiyalar bankning o'z mablag'lari, jalb qilingan va qarz mablag'lari hisobidan resurs bazasini shakllantirish va kengaytirishga qaratilgan. Bank kapitali esa uning iqtisodiy mustaqilligi va bozordagi barqarorligini ta'minlovchi asosiy manba sifatida xizmat qiladi. O'z mablag'lari tarkibiga ustav kapitali, zaxira fondlari, qo'shimcha mablag'lar va taqsimlanmagan foyda kiradi, bu esa bankning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank passivlarining samarali boshqarilishi xarajatlarni optimallashtirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu maqsadda banklar depozitlar tarkibini, hisobvaraqlar ulushini va boshqa jalb qilingan mablag'lar segmentlarini tahlil qiladi. Shuningdek, passivlar sifatini baholashda



koeffitsiyentlar, mijozlar bazasi ko'rsatkichlari, banklararo qarzдорlik va tashqi moliyalashtirish darajasi kabi indikatorlar qo'llaniladi.

Passivlar tuzilmasining samarali boshqarilishi bankning likvidlik darajasi va kreditlash salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Jalb qilingan mablag'lar bank resurslarining asosiy manbai bo'lib, ularning hajmi va tarkibi bankning moliyaviy barqarorligini belgilaydi. Shu bois, depozit siyosati va passivlar tahlili har bir tijorat banki faoliyatining muvaffaqiyati hamda resurs bazasining barqarorligini ta'minlashda markaziy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari resurs bazasining barqarorligi bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Bank resurslari tarkibi, ularning shakllanish manbalari hamda samarali boshqarilishi banklarning kreditlash imkoniyatlari, likvidlik darajasi va moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bank resurs bazasining shakllanishi va uning barqarorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan o'rganilgan.

Jumladan, iqtisodchi olim F.S. Mishkin bank kapitalining moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlashdagi muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bank kapitalining yetarli darajada shakllanishi bank faoliyatidagi risklarni kamaytiradi hamda banklarning kreditlash imkoniyatlarini kengaytiradi [1]. Shuningdek, kapital yetariligi bank tizimining moliyaviy inqirozlarga nisbatan barqarorligini oshiradi.

Iqtisodchi olim J.E. Stiglitz bank resurs bazasining iqtisodiyotdagi investitsiya jarayonlari uchun muhim moliyaviy manba ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, banklar jamg'armalarni jalb qilish orqali ularni samarali investitsiya loyihalariga yo'naltiradi va shu orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi [2].

Bank kapitali va kreditlash faoliyati o'rtasidagi bog'liqlik masalasi A.N. Berger tomonidan keng o'rganilgan. Uning fikricha, bank kapitalining yetarli darajada bo'lishi banklarning kreditlash hajmini oshirishga xizmat qiladi hamda bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi [3].

Shuningdek, iqtisodchi olim D.W. Diamond banklarning asosiy vazifasi iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'larini jalb qilish va ularni samarali taqsimlashdan iborat ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, banklar moliyaviy vositachi sifatida resurslarni samarali taqsimlash orqali iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi [4].

Bundan tashqari, iqtisodchi olim R. Levine moliyaviy tizim, xususan bank tizimi iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omillardan biri ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, banklar resurslarni jalb qilish va ularni samarali investitsiyalarga yo'naltirish orqali iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishga xizmat qiladi [5].

Professor Sh. Abdullayeva fikriga ko'ra, tijorat banklarining resurs bazasi bankning kredit potensialini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Bank tomonidan shakllantirilgan resurslar kredit operatsiyalarini amalga oshirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish hamda boshqa aktiv operatsiyalarni bajarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi [6].

Shuningdek, iqtisodchi olim A.A. Omonov tijorat banklari resurslarini iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'larini jalb qilish hamda bank kapitalini shakllantirish orqali vujudga keladigan moliyaviy resurslar majmui sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, bank resurslari bank faoliyatining asosiy moliyaviy manbai bo'lib, ular banklarning kreditlash va investitsiya faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlarini belgilaydi [7].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham tijorat banklarining resurs bazasi shakllanishi va uning barqarorligini ta'minlash masalalarini keng o'rganib kelmoqdalar. Jumladan, iqtisodchi olim I. Jo'rayev o'z tadqiqotlarida tijorat banklarining depozit siyosati banklar resurs bazasining asosiy manbalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, depozitlar hajmining barqaror o'sishi banklarning kreditlash imkoniyatlarini kengaytiradi va bank tizimi moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi [8].

A. Rahimov tijorat banklari resurs bazasida depozitlarning asosiy o'rinni egallashini ta'kidlaydi. Uning fikricha, depozit bazasini kengaytirish banklarning likvidlik salohiyatini oshirish, kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, u samarali depozit siyosatini shakllantirish orqali banklar o'z faoliyatini rivojlantirish va iqtisodiyotdagi bo'sh mablag'larni jalb qilish imkoniyatlarini yaxshilashini qayd etadi [9].

Umuman olganda, yuqoridagi ilmiy qarashlar tijorat banklarining resurs bazasi barqarorligi bank tizimining samarali faoliyat yuritishi, kreditlash hajmining kengayishi hamda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarining resurs bazasini shakllantirish va uning barqarorligini ta'minlash mexanizmlarini o'rganish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy iqtisodiy tahlil usullari, bank menejmenti nazariyalari hamda moliyaviy barqarorlik konsepsiyalari tashkil etadi.



Tadqiqot jarayonida aralash yondashuvdan foydalanildi, ya'ni sifat va miqdoriy tahlil usullari o'zaro uyg'unlashtirildi. Sifat tahlili doirasida ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tajriba o'rganildi. Miqdoriy tahlilda esa tijorat banklarining moliyaviy ko'rsatkichlari, xususan passivlar tuzilmasi, depozitlar hajmi va moliyaviy barqarorlik indikatorlari asosida hisob-kitoblar amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har qanday tijorat bankining passivlarini boshqarish mexanizmining asosida passivlarni shakllantirish siyosati yotadi. Bu siyosat bankning barcha siyosatlari orasida eng muhimlaridan biri hisoblanadi va aynan "tijorat bankining depozit siyosati" sifatida namoyon bo'ladi. Aynan ushbu siyosat asosida bankning kredit siyosati hamda investitsiya siyosati olib boriladi.

Passiv operatsiyalar — bu bankning resurs va kapital bazasini yaratish hamda uni kengaytirishga qaratilgan operatsiyalardir. Tijorat bankining passivlari tarkibida bankning o'z mablag'lari, jalb qilingan va qarz mablag'lari mavjud bo'lib, ular bankning salohiyatini aks ettiradi.

Kapital tushunchasi ostida bankning barcha o'z mablag'lari manbalari yig'indisi tushuniladi. Bankning o'z mablag'lari hajmi uning bozordagi barqarorligi va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlaydi. Tijorat bankining o'z mablag'lari manbalariga ustav kapitali, sug'urta rezervlari, qo'shimcha kapital, zaxira fondi, maxsus fondlar va taqsimlanmagan foyda kiradi.

Bankning o'z mablag'lari hajmi va tuzilmasi har bir bank tomonidan mustaqil ravishda, amalga oshirilayotgan strategiyalar va siyosatlarga muvofiq tarzda belgilanadi.

Tijorat banki operatsion xarajatlarining eng yirik moddolari odatda joriy va muddatli omonatlarga foiz to'lovlari bilan bog'liq xarajatlardan iborat bo'ladi. Xarajatlarni tahlil qilish jarayonida banklar nafaqat ularning mutlaq va nisbiy hajmini (xarajatlar guruhlariga bo'yicha), balki xarajatlar darajasiga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillarni ham aniqlaydi. Bu esa tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Bank xarajatlarini kamaytirish yo'nalishida resurs bazasining tuzilmasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, hisob-kitob, joriy va boshqa depozit hisobvaraqlari ulushining oshirilishi, shuningdek nisbatan yuqori xarajatlarga ega depozit vositalari, xususan banklararo kreditlar ulushining kamaytirilishi ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xarajatlarning tarkibiy tahlili ularning asosiy turlarini, dinamikasini va o'sish omillarini chuqur o'rganish hamda xarajatlar sifatini baholash maqsadida amalga oshiriladi. Mazkur tahlil bank faoliyatining samaradorligini baholashda muhim metodologik vosita hisoblanadi.

Tijorat bankining resurs bazasidan foydalanish samaradorligini baholashda bir qator usullar qo'llaniladi. Jumladan, guruhlash, taqqoslash va koeffitsiyentlar usullaridan foydalaniladi. Ushbu usullar natijasida resurs bazani har tomonlama tavsiflovchi mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar olinadi.

Guruhlash usuli — tijorat bankining resurs bazasi parametrlarini funksional ahamiyatga ega belgilar asosida guruhlarga ajratish orqali ularni tahlil qilish metodidir. Guruhlashdan avval tanlangan belgilar asosida parametrlarning tartiblash (ranjirlash) bosqichi amalga oshiriladi, bu esa har bir guruh bo'yicha alohida tahlil o'tkazish imkonini yaratadi.

Taqqoslash usuli — tijorat bankining resurs bazasi elementlari (yoki baholovchi ko'rsatkichlari) o'rtasidagi farqlarni aniqlash uchun ularni o'zaro solishtirishga asoslanadi. Ushbu usul, shuningdek, turli tijorat banklari o'rtasida resurs bazasining alohida elementlarini solishtirishda ham qo'llaniladi. Taqqoslash usulining afzalligi uning soddaligida bo'lsa-da, uning kamchiligi baholovchi ko'rsatkichlar orqali sabab-oqibat bog'liqliklarini to'liq aniqlash imkoniyatining cheklanganligidadir.

Koeffitsiyentli usul — tijorat bankining resurs bazasini nisbiy ko'rsatkichlar asosida baholash usulidir. Mazkur usul bankning ham o'z mablag'larini, ham jalb etilgan mablag'larini tahlil qilishda qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, passivlar sifati va ularning tuzilmaviy xususiyatlarini baholashda turli koeffitsiyentlardan foydalaniladi. Bu ko'rsatkichlar tijorat banki moliyaviy barqarorligini, resurs bazasi barqarorligini va kreditlash imkoniyatlarini tahlil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Passivlar sifatini baholashda foydalaniladigan asosiy ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat. Jalb qilingan mablag'lar tuzilmasi koeffitsiyenti bank tomonidan jalb qilingan mablag'lar tarkibidagi har bir tarkibiy qismlarning ulushini aniqlashda qo'llaniladi.

$$KP_i = \frac{P_i}{\sum P_i}$$

Bu yerda:

KP_i — jalb qilingan mablag'lar tuzilmasi koeffitsiyenti;



P_i – jalb qilingan mablag'larning muayyan kichik guruhi,

$\sum P_i$ – jalb qilingan mablag'larning umumiy hajmi.

Bunday tahlil har bir yirik iqtisodiy kontragentning bankning passiv operatsiyalarini rivojlantirishdagi rolini aniqlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, passivlar sifatini baholashda amaliyotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan bir qator boshqa ko'rsatkichlar mavjud.

Mijozlar bazasi koeffitsiyenti (Client Base Ratio – CBR) bankning resurs bazasi qanchalik mijozlar omonatlari hisobiga shakllanganini aks ettiradi va quyidagicha hisoblanadi:

$$CBR = \frac{CLB}{A_{net}}$$

Bu yerda:

CBR – bu yuridik va jismoniy shaxslarning talabgacha bo'lgan hisobvaraqlardagi mablag'lari, shuningdek, ularning muddatli depozitlari, veksellari, yuridik shaxslar tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar hamda jismoniy shaxslar depozitlaridan iborat mablag'lar;

CLB – mijozlar bazasining mutlaq miqdori,

Anet – bankning sof aktivlari.

Bu bazaga banklararo kreditlar va korrespondent hisobvaraqlardagi mablag'lar kiritilmaydi.

Mazkur koeffitsiyent bankning mijozlar hisobiga shakllangan passivlar ulushini ifodalaydi va moliyalashtirishda bankning "tashqi" manbalarga — xususan, banklararo va byudjet mablag'lariga bog'liqligini ko'rsatadi.

Koeffitsiyentning me'yoriy qiymati 0,5-0,6 oralig'ida bo'lishi lozim.

Agar bu ko'rsatkich 0,4 dan past bo'lsa, bankning rivojlanish darajasi yetarli emas deb hisoblanadi.

Aksincha, agar u 0,7 dan yuqori bo'lsa, bu bankning balans valyutasini boshqa operatsiyalar, ayniqsa banklararo bozor orqali kengaytirish imkoniyatlaridan to'liq foydalanmayotganini bildiradi.

Bank faoliyatining yana bir muhim ko'rsatkichi bu banklararo bozordagi sof qarzdorlik hajmi (net interbank funds (FBnet)) ko'rsatkichidir. Ushbu ko'rsatkich quyidagi formula orqali hisob-kitob qilinadi:

$$FB_{net} = (MBK_{bid} + MBK_{off}) + (Loro - Nostro)$$

Bu yerda:

$MBK_{bid/off}$ — banklararo bozorda jalb qilingan (bid) yoki joylashtirilgan (off) kreditlar hajmi;

Loro/Nostro — "loro" va "nostro" turidagi korrespondent hisobvaraqlardagi qoldiqlar (Markaziy bankdagi korrespondent hisobvaraqlar bundan mustasno).

Agar FB_{net} qiymati 0 dan katta bo'lsa, bank netto-qarzdor hisoblanadi;

agar 0 dan kichik bo'lsa, bank netto-kreditor hisoblanadi.

Kreditga layoqatlilik nuqtayi nazaridan, ikkinchi holat – ya'ni bankning netto-kreditor bo'lishi yanada afzaldir.

Umuman olganda, banklararo kreditlar asosan bankning qisqa muddatli likvidligini tartibga solish uchun xizmat qiladi. Shu sababli FB_{net} ko'rsatkichining ortiqcha yuqori qiymati (30-40 foizdan yuqori) salbiy holat sifatida baholanadi. Bunday holat bank mijozlar bazasining zaif rivojlanganligidan, moliyaviy resurslar tanqisligidan, mijozlar oqimi kamayganligidan yoki muammoli aktivlar mavjudligidan dalolat beradi.

Tashqi moliyalashtirish darajasi (External Finance Level – EFL) – tijorat bankining resurs bazasini shakllantirishdagi tashqi manbalarga (asosan banklararo qarzlari) bo'lgan qaramligini baholovchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu koeffitsiyent bank resurslarining qanchalik darajada mijozlar omonatlari (ichki manbalar) yoki banklararo qarzlari (tashqi manbalar) hisobidan shakllanganini aniqlash imkonini beradi.

$$EFL = \frac{FB_{net}}{CB}$$

bu yerda:

FB_{net} – banklararo bozordagi sof qarzdorlik miqdori (ya'ni jalb qilingan va joylashtirilgan mablag'lar farqi),

CB – mijozlar bazasi (yuridik va jismoniy shaxslarning talab qilib olguncha va muddatli hisobvaraqlardagi mablag'lar, depozitlari, veksellari, obligatsiyalari).

Mazkur koeffitsiyent bankning netto qarzlarning mijozlar mablag'lariga nisbati bo'lib, tashqi qarzlarning ichki manbalarga nisbati sifatida talqin etiladi. O'rtacha banklar uchun bu koeffitsiyentning optimal qiymati -0,2 dan + 0,2 gacha oraliqda bo'lishi tavsiya etiladi. Ya'ni, bank tashqi moliyalashtirishga haddan tashqari bog'lanmagan, lekin undan to'g'ri foydalanishi kerak.



Shunday qilib, bankning ichki va tashqi kreditorlari (mijozlar va boshqa banklar) bank tizimi samaradorligini ta'minlash mexanizmidan muhim rol o'ynaydi. Ular o'zaro raqobat muhitida moliyaviy resurslarning samarasiz kredit tashkilotlaridan samaraliroq tuzilmalarga oqib o'tishini ta'minlaydi.

Qoplama koeffitsiyenti (Cover Ratio – CR) — bankning moliyaviy barqarorligi va resurs bazasining sifatini baholovchi indikatorlardan biridir. U muammoli aktivlarni (ya'ni, qaytarilishi shubhali kreditlarni) qoplash imkoniyatini ko'rsatadi va bankning kredit risklarini qanday boshqarayotganini aks ettiradi. Qoplama koeffitsiyenti (CR) bank balansidagi muammoli kreditlarni qanday moliyalashtirayotganini, ya'ni ularni zaxiralar bilan qoplash darajasini bildiradi. Bu ko'rsatkich orqali bankning moliyaviy barqarorligi va riskka tayyorlik darajasi tahlil qilinadi.

$$CR = \frac{L}{Depo}$$

bu yerda:

L – bankning kredit portfeli (korporativ kreditlar, iste'mol kreditlari va “uzoq muddatli”, ya'ni bir oydan ortiq bo'lgan banklararo kreditlar);

Depo – bankning barcha muddatli resurs bazasi: yuridik shaxslarning depozitlari, jismoniy shaxslarning omonatlari, jalb qilingan muddatli banklararo qarzarlar, markazlashtirilgan kreditlar, veksel va muomaladagi qarz majburiyatlari, sindikatlashgan xorijiy kreditlar.

Hisoblangan qoplama koeffitsiyenti bankning “uzoq muddatli” aktivlarini moliyalashtirish darajasini ularning muddatli passivlar hisobidan qanchalik to'liq ta'minlanganini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich bank ishonchligining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Agar bankning uzoq muddatli, likvid bo'lmagan investitsiyalari yetarli darajadagi mos muddatli manbalar bilan qoplanmagan bo'lsa, joriy mablag'lar chiqib ketishi holatlarida bank likvidlik bilan bog'liq muammolarga duch kelishi mumkin. Agar bu ko'rsatkich 1 dan katta bo'lsa, bu bankning uzoq muddatli kreditlash faoliyati yetarli darajada muddatli resurslar bilan ta'minlanganini anglatadi. Aks holda ($CR < 1$) – bu bankda likvidlik bo'yicha risklar mavjudligini anglatadi, chunki uzoq muddatli aktivlar qisqa muddatli majburiyatlar bilan moliyalashtirilayotganidan dalolat beradi.

Bank siyosatining samaradorligini umumiy ko'rinishda baholash uchun sof foiz daromadi (SFD) va uning nisbiy ko'rinishi bo'lgan sof foiz marjasi (SFM) tahlil qilinadi. Ular quyidagi formulalar asosida hisoblanadi:

$$SFD = UFD - UFX$$

Bu yerda:

UFD – kreditlar va investitsiyalardan olingan umumiy foizli daromadlar;

UFX – depozitlar va boshqa jalb qilingan mablag'lar bo'yicha to'langan foiz xarajatlari.

$$SFM = \frac{SFD}{\text{Daromad keltiruvchi aktivlarning umumiy qiymati}}$$

Bank siyosatining samaradorligini tahlil qilishning umumiy uslublariga asoslanib, depozit siyosatini rentabellik nuqtayi nazaridan baholash mijozlar bilan operatsiyalar bo'yicha sof foiz daromadini (SFD_{kl}) va uning nisbiy ko'rsatkichini — mijozlar bilan operatsiyalar bo'yicha sof foiz marjasini (SFM_{kl}) tahlil qilish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu ko'rsatkichlar quyidagi formulalar asosida hisoblanadi:

$$SFD_{kl} = UFD - UFX$$

Bu yerda:

UFD – kreditlardan olingan umumiy foizli daromadlar;

UFX – depozitlar va boshqa jalb qilingan mablag'lar bo'yicha to'langan foiz xarajatlari.

$$SFM_{kl} = \frac{SFD_{kl}}{\text{Kredit qarzidorligining o'rtacha yillik miqdori}}$$

SFD_{kl} va SFM_{kl} ko'rsatkichlarining muntazam o'sishi bankning depozit siyosati samaradorligining ortib borayotganligini va umuman bank faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganligini anglatadi.

Yuqorida bayon etilgan usullardan tashqari, bankning ishonchligini hamda uning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydigan passivlar tuzilmasini saqlab qolish imkoniyatini tavsiflovchi ko'plab boshqa ko'rsatkichlar ham mavjud. Tijorat banklarining moliyaviy holatini tahlil qilishda turli ko'rsatkichlar va tahlil metodlaridan foydalanilishi har bir bankning moliyaviy holati o'ziga xosligi bilan izohlanadi. Shu sababli samarali tahlilni amalga oshirish uchun kompleks yondashuv zarur hisoblanadi.

Jalb qilingan mablag'lar tijorat banklari resurs bazasining asosiy manbai sifatida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning ahamiyatini yetarli darajada baholash bank moliyaviy faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari resurslari birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib, ular bank faoliyatining zaruriy faol elementlari sifatida xizmat qiladi.



Tijorat banki bir tomondan yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh pul mablag'larini jalb etadi va shu orqali o'zining resurs bazasini shakllantiradi, ikkinchi tomondan esa ushbu mablag'larni o'z nomidan muayyan foiz, muddat va qaytarish shartlari asosida joylashtiradi.

Hozirgi vaqtda tijorat banki o'z ixtiyoridagi resurslar doirasida operatsiyalarni amalga oshiradi hamda resurs bazasini shakllantirish va joylashtirish tartibini mustaqil ishlab chiqadi. Biznes jarayonlari sifati, jumladan risklarni boshqarish jarayonlarini nazorat qilish maqsadida banklarda ichki nazorat xizmati tashkil etiladi. Shuningdek, bank tuzilmasida risklarni boshqarish bo'yicha maxsus bo'lim faoliyat yuritib, u tijorat banki risklarini aniqlaydi va baholaydi, tavsiyalar beradi hamda risklarni boshqarish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqadi.

Tijorat banki tomonidan passiv operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida resurs bazasini shakllantirish tarixan uning aktiv operatsiyalariga nisbatan birlamchi va hal qiluvchi rol o'ynab kelgan. Ma'lumki, bank resurslarining asosiy qismi depozit operatsiyalari orqali shakllanadi. Aynan ushbu operatsiyalarni samarali va to'g'ri tashkil etish istalgan kredit tashkilotining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Shu sababli resurs salohiyatini oshirish va uning barqarorligini samarali boshqaruv hamda passivlar tahlili orqali ta'minlash masalalari alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bank kapitali tuzilmasida odatda eng katta ulushni jalb qilingan mablag'lar egallaydi. Bu holat banklarning ko'p jihatdan depozit resurslariga tayangan holda faoliyat yuritishini ko'rsatadi. Shu bois banklarning asosiy e'tibori aholining, ya'ni asosiy mablag' egalarining mablag'larini jalb qilishga qaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda asosiy rol bankning resurs bazasiga, xususan passivlar tuzilmasiga bog'liqdir. Passivlarni shakllantirish siyosati bankning depozit siyosati orqali amalga oshiriladi va bu siyosat kredit hamda investitsiya faoliyatining samaradorligini belgilaydi. Bank resurslarining asosiy qismi depozit operatsiyalari orqali jalb qilinadi, shuning uchun bankning asosiy e'tibori mijozlar mablag'larini jalb qilishga qaratiladi.

Passivlar tarkibida bankning o'z mablag'lari, jalb qilingan va qarz mablag'lari mavjud bo'lib, ular bankning moliyaviy salohiyatini aks ettiradi. O'z mablag'lari hajmi va tarkibi bankning bozordagi mustaqilligi hamda barqarorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, operatsion xarajatlar va depozitlar bo'yicha foiz xarajatlarini optimallashtirish orqali resurslardan foydalanish samaradorligi oshiriladi.

Tijorat banklarining resurs bazasini baholashda guruhlash, taqqoslash va koeffitsiyentlar usullari qo'llaniladi. Jumladan, mijozlar bazasi koeffitsiyenti (CBR), banklararo sof qarzдорlik (FBnet), tashqi moliyalashtirish darajasi (EFL) va qoplama koeffitsiyenti (CR) kabi ko'rsatkichlar bankning ichki va tashqi manbalarga bo'lgan bog'liqligi, moliyaviy barqarorligi hamda kreditlash imkoniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sof foiz daromadi (SFD) va sof foiz marjasi (SFM) ko'rsatkichlari esa bank depozit siyosatining rentabelligini baholashda qo'llaniladi. Ushbu ko'rsatkichlarning barqaror o'sib borishi bank faoliyatining samaradorligi va barqarorligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tijorat banklarining resurs bazasi barqarorligini ta'minlash, passivlar tuzilmasini samarali boshqarish hamda tegishli moliyaviy ko'rsatkichlarni muntazam tahlil qilish bankning moliyaviy mustahkamligini oshirish va iqtisodiyotdagi kreditlash hamda investitsiya faoliyatini samarali amalga oshirish imkonini beradi. Shu bois, passivlar va resurs bazasini boshqarish bank faoliyatining eng muhim strategik yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mishkin F.S. *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. 12th ed. Pearson, 2016.
2. Stiglitz J.E. *Economics of the Public Sector*. 3rd ed. W.W. Norton & Company, 2000.
3. Berger A.N., Udell G.F. The Economics of Small Business Finance: The Roles of Private Equity and Debt Markets in the Financial Growth Cycle // *Journal of Banking & Finance*. – 1995. – Vol. 22. – No. 6–8. – pp. 613–673.
4. Diamond D.W., Dybvig P.H. Bank Runs, Deposit Insurance, and Liquidity // *Journal of Political Economy*. – 1984. – Vol. 91. – No. 3. – pp. 401–419.
5. Levine R. Finance and Growth: Theory and Evidence // *NBER Working Paper*. – 2005. – No. 10766.
6. Abdullayeva Sh.Z. *Bank ishi: o'quv qo'llanma*. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019. – 420 b.
7. Omonov A.A., Koraliev T.M. *Pul va banklar*. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018. – 412 b.
8. Jo'rayev I.I. *O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash*: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: "Akademiya nashriyot markazi", 2020. – 54 b.
9. Rahimov A.M. *Tijorat banklari depozit bazasi va uni kengaytirish yo'llari*: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2019. – 54 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>